

Anvar XUDOYAROV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

O‘ZBEKISTONDA AN‘ANAVIY VA ZIYORAT TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Maqolada 2020-2025-yillar davomida O‘zbekistonda an‘anaviy va ziyorat turizmi industriyasining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Turizm sohasining pandemiyadan keyingi tiklanishi, jadal o‘shish bosqichlari hamda turistlar oqimi va xizmatlar eksportidagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, infratuzilma rivoji, vizasiz rejimlar kengayishi, turizmning yangi turlari (ziyosat, eko va MICE turizm) joriy etilishi va ularning iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Maqolada ziyorat turizmining madaniy-ma‘naviy ahamiyati, uning axborot texnologiyalari bilan integratsiyasi va kelgusi strategik rivojlanish yo‘nalishlari ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm industriyasi, ziyorat turizmi, an‘anaviy turizm, turizm xizmatlari eksporti, infratuzilma, vizasiz rejim, MICE turizm, eko turizm, axborot texnologiyalari, madaniy meros.

Аннотация. В статье анализируются тенденции развития традиционного и паломнического туризма в Узбекистане в 2020-2025 гг. Рассмотрены этапы кризиса, восстановления и ускоренного роста туристической отрасли, а также динамика туристического потока и экспорта туристических услуг. Особое внимание уделено развитию инфраструктуры, расширению безвизового режима и внедрению новых видов туризма (паломнический, экологический, MICE). Также раскрыта культурно-духовная значимость паломнического туризма, его интеграция с информационными технологиями и перспективы дальнейшего стратегического развития отрасли.

Ключевые слова: туристическая индустрия, паломнический туризм, традиционный туризм, экспорт туристических услуг, инфраструктура, безвизовый режим, MICE туризм, экологический туризм, информационные технологии, культурное наследие.

Abstract. This article analyzes the development trends of traditional and pilgrimage tourism in Uzbekistan during 2020-2025. It examines the stages of crisis, recovery, and rapid growth of the tourism industry, as well as changes in tourist flows and tourism service exports. Particular attention is given to infrastructure development, expansion of visa-free regimes, and the introduction of new tourism types (pilgrimage, eco, and MICE tourism). The study also highlights the cultural and spiritual significance of pilgrimage tourism, its integration with information technologies, and future strategic directions for the sector's development.

Keywords: Tourism industry, pilgrimage tourism, traditional tourism, tourism service exports, infrastructure, visa-free regime, MICE tourism, ecotourism, information technologies, cultural heritage.

Butunjahon turizm tashkiloti (UNTourism)ning statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, “...turizm daromadlilik darajasi bo‘yicha uchinchi, tovarlar va xizmatlar eksportida to‘rtinchi o‘rinda, uning jahon yalpi ichki mahsuloti (YAIM)dagi ulushi o‘rtacha 10,0 foizni tashkil etmoqda...”[1] Xalqaro mehnat tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda xalqaro turizm tizimida dunyoning mehnatga layoqatli aholisining 284 mln. kishisi banddir.[2] Shuningdek, bu tarmoqda yaratilgan bitta yangi ish o‘rni sanoat tarmog‘iga nisbatan 20 barobar arzoniga tushadi.[3] Biror-bir mamlakatga tashrif buyuruvchi har 30 ta turist bevosita bitta yoki bilvosita ikkita yangi ish o‘rinlarini barpo qilishga imkoniyat yaratadi [4] Demak, xulosa qilish mumkinki,

jahon iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga nisbatan turizm sohasi kamroq sarf-xarajatlar evaziga ko'proq ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashra xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Ayniqsa, 2020–2025-yillar oralig'ida ushbu soha pandemiya inqirozi, tiklanish va jadal o'sish bosqichlarini bosib o'tdi. Mazkur maqolada an'anaviy va ziyorat turizmining rivojlanish tendensiyalari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism

2020–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston turizm industriyasi keskin sinovlar va undan keyingi misli ko'rilmagan o'sish davrini boshdan kechirdi. Bu davrni shartli ravishda uchta bosqichga bo'lish mumkin: pandemiya inqirozi (2020–2021), tiklanish (2022–2023) va jadal rivojlanish (2024–2025). So'nggi yillarda xorijiy sayyohlar soni rekord darajada o'sdi. Agar 2020-yilda pandemiya sababli soha "to'xtab" qolgan bo'lsa, 2025-yilga kelib O'zbekiston dunyodagi eng tez rivojlanayotgan turistik yo'nalishlardan biriga aylandi.

Sayyohlarning yurtimizga bo'lgan qiziqishlar kundan-kun ortib bormoqda. So'ngi yillar kesimida sayyohlarning oqimi 2020-yil 1.5 mil.kishini, 2022-yil 5.2 mil. kishini, 2023-yil 6.7 mil.kishini, 2024-yil 8.0 mil. kishini, 2025-yil 11.7 mil kishini tashkil etdi. O'zbekistonda turizm xizmatlar eksporti esa (\$) 2020-yilda ~400 million bo'lgan bo'lsa 2025-yilga kelib taxminan ~4,5 milliardni tashkil etdi. Bunday rivojlanish tendensiyalarining asosi sifatida yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy isloxlarning samaradorligi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu bilan bir qatorda ta'kidlash joyizki 2025-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston 90 dan ortiq davlat fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy qilgan. 2025-yil iyun oyidan boshlab Xitoy bilan ikki tomonlama 30 kunlik vizasiz rejimning yo'lga qo'yilgani strategik qadam bo'ldi. Bu Xitoydan keluvchi sayyohlar sonini 2024-yildagi 74 mingtadan 1 milliongacha oshirish maqsadini qo'ydi.

Albatta bunday o'sish sur'atlarini ta'minlashda infratuzilma va logistika xizmatlarini takomillashtirish talab etiladi. Bu borada xukumatimiz tomonidan tegishli transport infratuzilmalarining xalqaro talablar doirasida rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda, yangi inshootlar tiklanmoqda. Xususan Toshkent xalqaro aeroportining o'tkazuvchanlik qobiliyati 7 mlndan 13 mln. yo'lovchigacha oshirildi. Samarqanddagi yangi aeroport ("Aeroport-xab") mintaqaviy markazga aylandi. Shu bilan bir qatorda mehmonxonalar industriyasi kengayib bormoqda. Xususan "Heritage Hotels of Uzbekistan" dasturi doirasida madaniy meros obyektlarida butiq-mehmonxonalar tashkil etildi. 2024-yilning o'zida mehmonxonalar va joylashtirish vositalari soni 25 foizga ko'paydi.

Soxani yanada rivojlantirish va diversifikasiyalash maqsadida Turizmning yangi turlarini joriy etish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Endilikda O'zbekiston faqat "Ipak yo'li" tarixiy shaharlari (Samarqand, Buxoro, Xiva) bilan cheklanmaydi:

– Ziyorat turizmi. Global Muslim Travel Index 2025 reytingida mamlakat 17-o'rinni egalladi.

– Eko va tog' turizmi. Namangandagi "Arashan" va Toshkent viloyatidagi

yangi dam olish maskanlari ochildi.

– MICE turizm. Xalqaro konferensiyalar va tadbirlar markazi sifatida Samarqand (Silk Road Samarkand) yetakchilik qilmoqda.

2025-yilda yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarning geografik oqimiga e'tibor qaratsak quyidagi raqamlar namoyon bo'ladi.

1. Qirg'iziston (3.3 mln)

2. Tojikiston (2.7 mln)

3. Qozog'iston (2.7 mln)

4. Rossiya (984 ming)

5. Afg'oniston (476 ming) Shuningdek, Xitoy, Turkiya, Hindiston va Janubiy Koreyadan keluvchilar oqimi sezilarli darajada o'sgan.

Ziyorat turizmining o'ziga xos xususiyatlari.

Bundagi asosiy ta'cip etuvchi omillardan biri bu O'zbekiston o'zining boy madaniy va ma'naviy merosi, memoriy va tasviriy san'ati, tarixiy obidalar bilan, hamda Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Muxammad Muso Xorazmi, Abu Nasr Forobiy, Axmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yassaviy, Abu Iso at-Termiziy, Mirzo Ulugg'eyk, Bahouddin Naqshband, Abdulxoliq G'ijduvoni, Xo'ja Ali Romitoni, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur kabi ko'plab dunyoga taniqli mashhur va buyuk ajdodlarimiz dunyo olimlari va sayyohlarini o'ziga jalb etib kelmoqda. Bu o'z navbatida xalqaro turizm bozorlaridagi o'zimizga xos o'rinimiz va nufuzimizni ko'rsatadi.

Ta'kidlash joyizki, 2023-yilda qabul qilingan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham sohada erishilgan natijalar va olib borilayotgan keng ko'lamlislohotlarni yanada jadallashtirganholda xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish, tog'li hududlarda 25 ta doryo'llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi qo'yilgan. Bu bilan mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda turizmning multiplikativ samarasidan foydalanish va pirovard natijada aholining turmush farovonligi o'sishga erishish ko'zda tutilgan.

Yurtimizning beqiyos turistik obyektlari qatorida Buxoroning har bir qarich yeri avliyolar sharofati bilan ziyoratgohga aylangan. Ziyoratgohlar insoniyatga, uning ongidagi tasavvuf va tariqat olamidagi ilk g'oyalarni keng targ'ib etilishiga ulkan hissa ko'shgani barchamizga ma'lum. Ayniqsa, butun dunyo ahlini o'ziga jalb etayotgan yetti pirlar bilan birgalikda, Sayfiddin Boharziy, Mog'aki Attoriy, Abu Hafs Kabir, Xoja Ka'bul Ahbor Vali, Boboyi Poraduz ziyoratgohi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Bibi Orifa maqbarasi, Mir Arab madrasasi va boshqa ko'plab ziyoratgohlarni sanab o'tishimiz mumkin.

Unda insoniyat ma'naviyati-madaniyati, ongi, iste'dodining yuksak ifodasini, u qurgan tarixiy obidalar, masjid-madrasalar, ziyoratgohlar arxitekturasi evolyusiyasida takrorlanmas san'at darajasida namoyon etganligini amin bo'lamiz.

Buxoro 2020-yilda "Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi munosabati bilan Buxorodagi 7 ta – Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Bakr,

Bahouddin Naqshband majmualari, Mag'oki Attor masjidi, Poi-Kalon ansambli, Qadimgi Poykent shahri qoldiqlari va Tosharoy madrasalari ICESCONing Islom Olami Merosi ro'yxatiga kiritilishi ahamiyatlidir.

Diniy ziyorat ko'plab xalqlar hayotidagi murakkab va xilma-xil ma'naviy va ijtimoiy-madaniy hodisadir. Ziyorat diniy faoliyat turi sifatida qadimgi davrlarda vujudga kelgan va dinning rivojlangan shakllarining paydo bo'lishi va jamiyatda ijtimoiy-madaniy munosabatlarning yuqori bosqichi bilan bog'liq.

Bugungi kunda mavjud ziyoratgohlarning madaniy-ma'naviy meros, islom me'morchiligi kelib chiqish tarixi, dunyoviy-diniy-falsafiy qarashlarining kelib chiqishi, tarixiy evolyusiyasiga doir ilmiy-madaniy o'rni va ahamiyatini tadqiq etish, o'rganish orqali islom sivilizasiyasiga qo'shgan hissalariga tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirish talab etiladi. Yurtimizda mavjud qadamjolar va ziyoratgohlarini o'rganish, ma'lumotlar yig'ish va ulardan samarali foydalanishning an'anaviy va zamonaviy usullarini keng joriy etgan xolda milliy va xalqaro sayyohlarning oqimini kengaytirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalarining o'rni

Bugungi kunda ziyoratgohlar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda ko'plab tegishli ilmiy tadqiqot markazlari, oliy ta'lim muassasalari tadqiqotchilari tomonidan ilmiy ishlar olib borilib amaliyotga joriy etilmoqda. XXI asrning boshlaridan boshlab axborot texnologiyalari ijtimoiy-gumanitar va diniy-ma'rifiy sohalarini rivojlantirish borasida keng qo'llanila boshlandi. Xususan, turizm, ziyorat turizmi borasida ilmiy tadqiqotlar, tarixiy hodisalarni virtual voqelik asosida o'rganish, ajdodlar meroslarining raqamli resurslar bazasini yaratish va boshqa tadqiqotlarni ko'rsatish mumkin.

Turizm sohasida ziyoratgohlar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda axborot texnologiyalarining o'ziga xos o'rni va xususiyatlari mavjud. Masalan, ziyorat turizmining ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarini ularga hisob yuritishning avtomatlashtirilgan tizimlarini qo'llash orqali ishlab chiqarish salmog'ining o'sishi, hisob yuritish mexanizmlarining sifatli bo'lishiga erishdi. Shunday hisob yuritish tizimlari namunasi sifatida umumjahon iqtisodchilari tan olgan SAP, Scala, CRM va 1C tizimlarini keltirish mumkin.[5]

Ziyorat turizmida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda turistik resurslar bo'yicha ma'lumotlar yig'ilib, tahlil qilinib ishlab chiqarishga buyurtma qabul qilishdan boshlab, to tayyor mahsulot ishlab chiqarilib yoki xizmat ko'satilib, buyurtmachi yoki xaridorga yetkazib berilguncha bo'lgan jarayonlar nazoratda bo'ladi. Faoliyat natijalarini gorizontaal va vertikal tahlil qilish imkoniyatlari mavjud. Tahlil natijalariga ko'ra turizmida ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish plan grafiklarini operativ tuzatish imkoniyatlari mavjud. Bunday imkoniyatlar esa ishlab chiqarish yoki xizmat ko'satishni yanada yangi taraqqiyot bosqichlariga olib chiqish imkonini bermoqda.

Xulosa

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy axborot tizimiga asoslangan ziyorat turizmi tarmoqlari miqyosida faoliyatining muvaffaqiyati taxlil qilingan zaruriy ma'lumotlarni o'zaro uzatish va ularni yetkazish tezligi, axborotlarning dolzarbligi, to'liqligi hamda o'z vaqtida uzatilishi va qabul qilinishi

bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir. Jahon bozorlarida turizm industriyasining samarali rivojlanishi ham sayyohlik mahsulotlarni ishlab chiqish, uni o‘z vaqtida iste‘molchilarga yetkazib berish bosqichlariga tegishli bo‘lgan har bir jarayonga zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishni talab etadi.

Natijada oldimizga qo‘ygan 2030-yilgacha strategik maqsadlar sifatida

– Xorijiy sayyohlar sonini 15 millionga yetkazish.

– Ichki turistlar sonini 25 millionga chiqarish.

– Turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish kabi marralarni egallashga qaratilgan.

2020-2025-yillar oralig‘ida O‘zbekiston turizm sohasi “miqdordan sifatga” o‘tish bosqichini boshladi. Sohaning Yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi ortib bormoqda va u iqtisodiyotning drayver sohalaridan biriga aylandi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tuxliyev N., Jiyanov O‘. Turizmning rivojlanish milliy modellari. Darslik. – T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti, 2021. – 256 b.

2. Xudoyarov A. O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. – T.: “Kompleks Print” nashriyoti, 2018. – 303 b.

3. Xudoyarov A. Turizm va mexmonxona industriyasi asoslari. Darslik. – T.: “Kompleks Print” nashriyoti, 2023. – 207.b.

4. Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенз Дж. Маркетинг. Гостеприимство. Туризм: Учебник для вузов. Второе издание. – М.: YУНИТИ – ДАНА, 2012. – 1063 с.

5. Tuxliyev N., Maksudova Sh. Turizmدا raqamlashtirish. Monografiya. – T.: «Ilm-Ziyo-Zakovat» nashriyoti, 2024. – 175 b.

Ashirali ABDIRASHIDOV,

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,

“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT VA MADANIY TURIZM RIVOJLANISHINING HUDUDIY ISTE‘MOL TOVARLARI BOZORIGA TA’SIRI

***Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda ziyorat va madaniy turizmning rivojlanishi hududiy iste‘mol tovarlari bozoriga ta’siri tahlil qilingan. Turistlar oqimining ortishi mahalliy mahsulotlar, milliy hunarmandchilik buyumlari, suvenirlar va xizmatlarga bo‘lgan talabni oshirib, savdo va tadbirkorlik faolligining kengayishiga xizmat qilishi asoslangan.*

***Kalit so‘zlar:** ziyorat turizmi, madaniy turizm, iste‘mol tovarlari bozori, turistik oqim, mahalliy mahsulotlar, milliy hunarmandchilik, suvenirlar, iste‘mol talabi, tadbirkorlik, hududiy rivojlanish.*

***Аннотация.** В статье анализируется влияние развития паломнического и культурного туризма в Узбекистане на региональный рынок потребительских товаров. В основе анализа лежит тот факт, что увеличение туристических потоков повышает спрос*